

O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI BOSHLANG‘ICH  
TASHKILOTINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Ilmiy rahbar: **Xurshid Samatov**

Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti Samarqand filiali talabasi

**Nilufar Hoshimova**

Telefon raqami: +998944541301

Electron pochta: [nilufarhoshimova417@gmail.com](mailto:nilufarhoshimova417@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda, yoshlarimizga Prezidentimiz tomonidan beriladigan, imkoniyatlar, ularning, bilim olish o‘z ustida ishlashi hamda salohiyatini oshirish maqsadida har xil yaratib berilayotgan shart- sharoitlar haqida aytib o‘tiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma‘naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

**Kalit so‘z:** Qurultoy, huquqbuzarlik, Ustavda, “ommaviy madaniyat”

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о возможностях, предоставляемых нашей молодежи нашим Президентом, различных условиях, которые создаются для того, чтобы они могли работать над своим образованием и повышать свой потенциал.

За годы независимости в нашей стране были проведены определенные мероприятия по воспитанию молодежи в духе патриотизма, уважения к нашим национальным традициям и ценностям, воспитанию духовно зрелого и физически здорового поколения, защите их прав и интересов.

**Ключевые слова:** Конгресс, правонарушение, в Уставе, «общественная культура».

**Abstract:** This article talks about the opportunities given to our young people by our President, various conditions that are being created for them to work on their education and increase their potential.

During the years of independence, certain activities were carried out in our country to educate young people in the spirit of patriotism, respect for our national traditions and values, to bring up a spiritually mature and physically healthy generation, and to protect their rights and interests.

**Keywords:** Congress, offense, in the Charter, "public culture"

**O‘zbekiston yoshlarini bir maqsad yo‘lida birlashtirgan tashkiloti qachondan tashkil topdi.**

“Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 30 iyun kuni “Kamolot” Yo‘lH ning IV- Qurultoyida ishtirok etdi. Bu Qurultoyda davlat tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e‘tibori va yoshlarning davlat kelajagiga ma’sulyat bilan yondashayotganligi yana bir bor o‘z aksini topdi. Prezidentimiz yoshlarning erishayotgan yutuqlari bilan o‘zbek xalqi faxrlanishini ta’kidlab, yoshlarni qiynayotgan muammolarga to‘xtalib o‘tdi” (1).

O‘zbekiston Respublikasining barcha yoshlarini bir maqsad yo‘lida birlashtirgan bu tashkilot 2017-yil 30-iyun kundan boshlab o‘z faolyatini boshladi. Faoliyati davomida, yoshlarning madaniyatini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini yanada kengaytirish, o‘sib kelayotgan yoshlarni o‘z mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlash, ularni rahbar sifatida shakllantirib borish va eng asosiysi yoshlarda vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada kuchaytirish masalalarini olg‘a surgan.

Yoshlar Ittifoqiga yoshlar o‘z qobiliyatidan kelib chiqqan holda va o‘z xohishlari bilan yoshlar tashkilotiga ilk qadamlarini qo‘ymoqda. Bunda yoshlar qamrovi cheklanmagan holda, O‘zbekistonning barcha yoshlarini jalb qilish, yoshlarga o‘z yo‘lini tanlashda ko‘maklashish, ularga moddiy va ma’naviy yordamlashishni o‘zining asosiy vazifalaridan biri qilib qo‘ydi. Yurtimizdagi har bir yosh ularga berilayotgan imkoniyatlardan chetda qolmagan holda, barcha yoshlar imkoniyatlardan keng foydalanishi nazarda tutiloib kelinmoqda.

“2016-yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqin huquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani, yosh oilalar o‘rtasida 8 mingdan ortiq ajralish holati qayd etilgani barchamizni jiddiy tashvishga solishi kerak”(3).

Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, yoshlarimiz o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida yurtimizda keng ko‘lamda ishlar amalga oshirilmoqda. Ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularning eng oliy maqsadi hisoblanadi.

**Uning asosiy vazifalari nima va yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratib bermoqda.**

“O‘zbekiston yoshlar ittifoqi jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’siridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko‘maklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida

jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, O‘zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir”(4).

**Ittifoqning asosiy maqsadi** yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O‘zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta’minlash, yigit-qizlarning ma’naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishdan iborat.

**Ittifoqning asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o‘zining hayotiy pozitsiyasi va qat’iy e’tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o‘rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo‘lishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash, ro‘y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish;

- yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy kasblarni egallashga bo‘lgan intilishini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;

- iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ilmiy faoliyatga jalb qilish;

- yoshlar, xususan uyushmagan yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb qilish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni diniy-ekstremistik va boshqa buzg‘unchi tashkilotlar ta’siridan, chetdan “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta’sir va tahdidlardan asrash, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni profilaktika qilish va oldini olishga ko‘maklashish va boshqalar.

“O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini boshlagandan so‘ng yoshlar bilan bog‘liq eng muhim masalalarni belgilab olgan holda muammolarga yechim topish yo‘lidan bordi. Yoshlar bandligini ta’minlash ana shunday dolzarb masalalardan biri edi. Turli loyihalar, uzoqni ko‘zlab qilingan chora-tadbirlar natijasi bugun anchagina sezildi.

Buni yoshlar bandligini ta'minlash borasida olib borilgan ishlarni tahlil qilgan holda anglab yetish qiyin emas. Ittifoq tashkil topgan 2017 yilning o'zida 28 760 nafar yoshlar ish bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018 yilda 46 062 nafarga yetgan. Xorijga ishlashga ketish istagida bo'lgan yoshlar uchun rus tili, ingliz tili va xorijiy davlatlarning mehnat qonunchiligi bo'yicha 209 ta bepul to'garaklar tashkil etildi. 2018 yilda ushbu to'garaklarga jami 17 497 nafar yoshlar qatnashgan bo'lsa, 2019 yilda 7 410 nafar yoshlar ishtirok etdi.”(5)

**Ittifoqqa yuridik va jismoniy shaxslar Ustavda belgilangan tartibga asosan a'zo bo'lish mumkin.** Ya'ni, Ittifoqning maqsadini qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida muntazam yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar Ittifoqning a'zosi bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga yoshlar sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar sohasiga oid korxonalar, muassasa va tashkilotlar hamda ta'lim hujjatlari Ittifoqning Ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar ham Ittifoqqa a'zo bo'lishi mumkin.

**Prezidentimiz tomonidan ushbu tashkilot uchun yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalana oldimi.**

“So'nggi yillarda mamlakatimizda – yangi O'zbekistonda yoshlarga munosabat butunlay o'zgardi. Yoshlarga oid davlat siyosati asosida yosh avlodning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning ezgu orzu-intilishlari, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar izchil va samarali amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Milliy universitetida ham yoshlarga oid davlat siyosati doirasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bulardan asosiy maqsad jahon standarti talablariga mos keladigan, intellektual salohiyati yuqori, malakali mutaxassislarni yetishtirish va ularni mamlakat taraqqiyotiga safarbar etishdan iborat.”(2)

Talaba-yoshlarning nazariy bilimlarini amaliyot ko'nikmalari bilan o'zaro muvofiqlashtirish, ularni tashabbuskorlik va faollikka undash maqsadida rahbariyat tomonidan ko'plab tadbir va tashabbuslar joriy qilinmoqda. Xususan, 30 iyun – “Yoshlar kuni” sifatida yurtimiz bo'ylab keng nishonlanib kelinmoqda. Yoshlar uchun Prezintimiz tomonidan ko'plab shart sharoitlar yaratib berilmoqda. Qobiliyatli yoshlar, tadbirkorlikka qiziquvchi hamda, til sertifikatlarini olmoqchi bo'lgan yoshlar uchun ham keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

**Xulosa:**

“Hurmatli prezidentimiz o‘zlarining ma’ruzalarida yoshlar siyosatini yanada yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha alohida to‘xtalib o‘tdilar. Meni quvontirgan narsa, yangilangan Konstitutsiyada bevosita yoshlarga oid bobning kiritilishi va ularga oid normalarni ikki baravarga ko‘paytirilishi bo‘ldi.

Yana bir narsa, davlatning yoshlar oldida majburiyat olayotgani juda katta tarixiy voqea desam mubolag‘a bo‘lmaydi”, — deydi Temurbek Poyonov.(6)

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti rahbarining so‘zlaridan kelib chiqqan holda aytadigan bo‘lsak, biz yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar eshiklari ochilganligini aytib o‘tib o‘tishimiz lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://tiame.uz/>
2. <https://nuu.uz/>
3. <https://daryo.uz/>
4. <https://yoshlarittifoqi.uz/>
5. <https://yoshlarittifoqi.uz/>
6. <https://daryo.uz/>
7. <https://kun.uz/>